

**BUXOROI SHARIFNING 12 DARVOZASI QURILISHI TARIXI VA
ARXITEKTURASI**

Imamov Suxrob Solexovich

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti “Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasida
stajyor-o’qituvchisi*

Xaitov Sunnatjon Istamovich

Buxoro muhandislik texnologiya instituti “Arxitektura” kafedrasida stajyor-o’qituvchisi

**ИСТОРИЯ И АРХИТЕКТУРА СТРОИТЕЛЬСТВА 12 ВОРОТ БУХАРАИ
ШАРИФА**

Имамов Сухроб Солехович

*стажер-преподаватель кафедры «Строительство зданий и сооружений»
Бухарского инженерно-технологического института*

Хайтов Суннатжон Истамович

*стажер-преподаватель кафедры «Архитектура» Бухарского инженерно-
технологического института*

**HISTORY AND ARCHITECTURE OF THE CONSTRUCTION OF 12 GATES OF
BUKHARAI SHARIF**

Imamov Sukhrob Solekhovich

*Construction teacher of “Construction of buildings and structures” department of
Bukhara Engineering-Technological Institute*

Bobomurotov Hamza Halimovich

*Construction teacher of “Architecture” department of Bukhara Engineering-
Technological Institute*

Kalit so’z va iboralar: *Temir darvoza, Qo’handiz darvozasi, Binni Asad darvozasi, Binni Sad darvozasi, Attorlar darvozasi, Nur (Nav) darvozasi, Hakroh darvozasi, Qarshi (Qavola) darvozasi, Mazori Sharif darvozasi, Samarqand darvozasi, Hazrat Imom darvozasi, O’g’lon darvozasi, Talipoch darvozasi, Shergiron darvozasi, Qarako’l darvozasi, Shayh Jalol darvozasi, Namozgoh darvozasi, Sallohxon darvozasi, Xo’ja Ismat (Xo’jayon) darvozasi.*

Ключевые слова и фразы: *Железные ворота, Ворота Кохандиз, Ворота Бинни Асад, Ворота Бинни Сад, Ворота Аттларлар, Ворота Нур (Нав), Ворота Хакрох, Ворота Карши (Кавола), Ворота Мазори Шариф, Ворота Самарканд, Ворота Хазрат Имам, Ворота Оглан, ворота Талипоч, ворота Шергирон, ворота Каракол,*

ворота Шейха Джалала, ворота Намазгох, ворота Салах-хана, ворота Ходжа Исмаат (Ходжаён).

Key words and phrases: *Iron Gate, Kohandiz Gate, Binni Asad Gate, Binni Sad Gate, Attarlar Gate, Nur (Nav) Gate, Hakroh Gate, Qarshi (Qawola) Gate, Mazori Sharif Gate, Samarkand Gate, Hazrat Imam gate, Oghlan gate, Talipoch gate, Shergiron gate, Karakol gate, Sheikh Jalal gate, Namazgoh gate, Sallah Khan gate, Khoja Ismat (Khojayon) gate.*

Buxoro dastlabki 7 darvozasi. Darvoza-shahar, qal'a, saroy, qo'rg'onning kirish joyiga o'rnatiladigan katta eshik, qopqa. Qadimda O'rta Osiyo shaharlarining atrofi qal'aband mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, bir nechtdan darvozalari bo'lgan. Masalan Buxoroning qadimda 7 ta darvozalari bo'lgan. Darvozalar odatda archa, qayrag'och daraxtlari yog'ochidan yasalib, usti temir hoshiya bilan qoplangan, turli zulfinlari badiiy naqshlar bilan bezatilgan. Darvozalarning yuqori qismi ko'pincha panjarali bo'lgan.

Buxoro o'rta asr shahar qurilishi an'analari asosida bunyod etilgan bo'lib, 3 qism: Ark, shahriston va raboddan iborat bo'lgan. Buxoro Arkida 2 darvoza bor edi. G'arbiy darvoza-Registon, Alaffurushon yoki Somonfurushon, Sharqiy darvoza-Go'riyon deb yuritilgan. Shahristonda esa 7 darvoza bo'lib, ular shaharning 4 tomonida joylashgan.

Shahriston shimolida Haq (RohXufra), janubida Attoron (Bob ul Madina) va Ohaniyon (Temirchilar), sharqida Nav (Nur), g'arbida esa Ko'handiz, Muhra (Bani Asad) va Bani Sa'd darvozalari bo'lgan. Atgorondan Xurosonga, Haq Rohdan Samarqandga, Nur (Nav) orqali esa Nasaf (Qarshi) tomonga yo'llar ketgan. Qolgan 4 ta darvoza orqali podshoh qarorgohi Arkka borilgan. Rabod atrofida dastlab ichki devor, 849—850 yillarda tashqi devor bino qilinib, uning 11 darvozasi bor edi. Ichki devorning darvozalari shimolida Bobul Hadid, Samarqand va Mug'on, janubida Puli Suvayk, Abduhoshim Kanoniy, Ruhba, Moh, g'arbida Darvozacha, Forjak, sharqida Puli Abdulhasan va Moh darvozalari joylashgan. Rabod tashqi devori bitganidan so'ng uning shimolida Navbahor, Samarqand va Riv, sharqida Mardikushon, Kalobod hamda g'arbida Romitan, Forjak, Qo'shanj nomli darvozalari bo'lgan. Qadimiy Buxoro shahri VIII-XVI asrlar mobaynida atrofi baland devorlar bilan o'ralgan bir qal'a shaklida bo'lgani va qal'aga etti darvoza orqali kirilgani tarixdan ma'lum. Bu darvozalar:

1. Temir darvoza
2. Qo'handiz darvozasi;
3. Binni Asad darvozasi;
4. Binni Sad darvozasIII: Attorlar darvozasi;
5. Nur (Nav) darvozasi;
6. Hakroh darvozasi.

Qadim darvozalarning qurilishi, nomlanishi ham o'ziga xos tarixga ega. Mazkur inshootlarning asrlar sinovidan eson-omon o'ta olishi uchun dastlab qurilish materiallariga, texnologiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Chunonchi, qurilishda ishlatilgan birgina loyni tayyorlash uchun ko'mir kukuni, qamish kuli, ohak-ganch, qum

va suvdan iborat qorishma o'n ikki soat qaynatilgan. Tayyor qorishma darvoza devori mustahkamligini ta'minlash bilan birga o'zidan nam o'tkazmagan va shu orqali yemirilish oldini olgan. Shuningdek, asos (fundament) bo'ya yoki qamish bilan yopilib, uning ustidan ikki qator 25x25 sm. o'lchamdagi g'ishtlar terilgan. So'ng ikkita guldasta yasilib, arka, timpan, kitoba, dandonalar qal'a devori balandligiga tenglashtirib yasalgan. Lekin har bir darvozaning tashqiko'rinishi, me'moriy yechimi bir-biridan farq qilgan.

Buxoroning 12 darvozasi. Buxoroning 7 tilga olingan darvozalar Chingizxon bosqini (XIII asrning boshi) davrida ancha vayron etilgan edi. Oradan bir necha asr o'tgach esa Shayboniy hukmdorlardan biri Abzulazizxon Buxoro qal'asini qayta tiklashga qo'l uradi. 1557-1560 yillarda u Buxoro qal'asi hududini kengaytirib, himoya devorlarini qaytadan tiklashga kirishadi. Natijada oldingiga nisbatan ancha kengaytirilgan shaharga endi yettita emas, o'n bitta darvoza orqali kirib kelinadigan bo'ladi. Bu quyidagi darvozalar: 1) Qarshi(Qavola) darvozasi; 2) Mazori Sharif darvozasi; 3) Samarqand darvozasi; 4) Hazrat Imom darvozasi; 5) O'g'lon darvozasi; 6) Talipoch darvozasi; 7) Shergiron darvozasi; 8) Qarako'l darvozasi; 9) Shayh Jalol darvozasi; 10) Namozgoh darvozasi; 11) Salloxon darvozasi; 12) Xo'ja Ismat (Xo'jayon) darvozasi.

Buxoro uzoq tarixi davomida bir necha bor urushlar natijasida vayron qilingan. Ayniqsa, Qoraxoniylar bilan Somoniylar o'rtasidagi kurashlar davrida, Chingizxon hujumi oqibatida shahar devor va darvozalari buzib tashlandi.

XVI asrda shayboniylardan Abdullaxon II davrida Buxoro atrofi yangi devor bilan o'rab olindi va darvozalar qurildi. Tarixiy davrlar o'tishi bilan Buxoro darvozalari nomlash ham o'zgarib bordi. XIX asr o'rtalariga kelib Buxoro darvozalari: Sallaxona, Qavola Mahmud, Qarshi, Bahovuddin, Fayzobod, Samarqand, Imom, O'g'lon, Talipoch, Shergiron, Qorako'l nomlari bilan yuritilgan. XX asr boshlarida Buxoro shahrining darvozalari quyidagicha nomlangan: shaharning shimolda Imom va Samarqand, janubda Shayx Jalol, Namozgoh va Sallaxona; sharqida Mozor va Qarshi; g'arbida O'g'lon, Talipoch, Shergiron va Qorako'l.

1920 yilning kuzida sho'ro mustabidlarining Buxoro bosqinida, o'nlab obidalar qatori Buxoro darvozalari ham katta shikast ko'rdi, ko'plari buzib tashlandi, yondirildi va yo'qotildi. Hozirgi kunda Qorako'l va Talipoch darvozalari o'tmish yodgorligi sifatida bir qadar saqlanib qolingan. Buxoroning mahobatli darvozalari sharif shaharning noyob me'moriy obidalari sirasiga kiradi. Muharrixlarning ma'lumot berishlaricha, VIII-XVII asrlarda Buxoroda ettita darvoza mavjud bo'lgan. Asrlar o'tib, aholi sonining oshishi hamda shahar hududi kengayishi tufayli ular soni



avvaliga o'n bittaga yetgan. Quyida Buxoroning 12 darvozasi haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

1. O'g'lon Darvozasi. Buxoroi sharifning mazkur mahobatli darvozasi; Chorbaqoli yaqini, qadimiy Romitan qo'rg'oniga boradigan katta yo'l yoqasid joylashgan. Shimoliy tomonda O'lon Ato mahallasi, janubda Nog'orachilar mahallasi bo'lgan. Darvoza va unga tutash O'g'lon Ato madrasasi va masjidi 1948-1950 yillarda buzib tashlandi. Ayni paytda bu joyda dehqon bozori qad rostlagan.

1-rasm. O'g'lon Darvozasi

2. Hazrati Imom Darvozasi. VIII asrgacha Darvozai Navs (Yangi darvoza) deb yuritilgan. So'ngra buxorolik mashhur ulamo Abu Hafs Kabir imom Buxoriy (767-832-yillar) sharafiga Haqroh darvozai imom, deb atala boshlangan. Darvozaning balandligi 11,6 metr, kengligi 13 metr, asosi 1,5 metrdan iborat bo'lgan. Darvoza usti esa 31 ta gultoждан tashkil topgan. Darvoza guldastalari uch qavatli bo'lib, u yerda qo'riqchilar turadigan xona bo'lgan.

Narshaxiyning ma'lumot berishicha, Abu Hafs Kabirning qabrlari ham shudarvoza yonidagi tepalikda joylashgan. Abdullaxon tomonidan qayta ta'mirlangan. Samarand yo'li orqali keladigan G'ijduvon, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlardan, uzoq xorijdan kelgan mehmonlar, savdogarlar shu darvozadan shaharga kirishgan. Darvoza yaqinida aravasoqlik, yog'och materiallari, eshik, deraza bozori bo'lgan. Keyinchalik amir Abdulahad, Amir Olimxon davrida yozgi saroy – Sitorai Moxi Xossaga eltuvchi yo'l shu darvoza orqali o'tgani bois, bu maskan savdogarlar uchun juda ahamiyatli hisoblangan. O'tgan asrning 60-yillarida shahar kengayishi bahonasida buzilgan inshoot o'rnida hozir darvoza asl qiyofasi asosida qayta bunyod etildi. Darvoza 2009-yil sentyabr oyidan qayta tiklana boshlandi. Darvozaning har biri diametri 8,5 metrni tashkil etgan ikki guldastasi poydevorini mustahkamlashda o'tmish ustalarining qadimiy usullaridan foydalanildi. Chunonchi, xarsangtoshlar ustiga avval qurigan qamish, keyin ohaktosh va yana qamish qatlamlari yotqizilgandan so'nggina ustalar loyihaga asosan g'isht terishga kirishgani yangi obidani zax suvlar va sho'r ta'siridan saqlash imkonini berdi. Balandligi 10 metr, devorlari qalinligi 1,56 metr bo'lgan, 23 ta gultoј, 365 ming dona oddiy salloti va 52 ming dona obi g'isht, 65 ming kubometr betondan iborat. Qurilish ishlarini usta-me'morlar Muzaffar Mirzayev, Ma'mur Mirzayev va Ma'ruf Mirzayevlar olib borishgan.




2-rasm. Hazarati Imom darvozasi

3. Mozori Sharif Darvozasi. Abdullaxon Buxoroni kengaytirgan vaqtida Bahouddin Naqshband ziyoratgohiga boradigan yo'lda ushbu darvozani qurdiradi. Darvozaning yonidan Shohrud arig'i o'tgan. Haftaning har seshanba-chorshanba kunlari, ayniqsa hayit bayramlarida darvoza oldi Markaziy Osiyoning turli shaharlaridan keluvchi ziyoratchilar tashrifi tufayli gavjumlashgan. Mozori Sharif darvozasi salobatli va keng, 18 ta gultojdan iborat bo'lib, svod timpan (ravoq) kiteba ya'ni arkasiz shaklda bunyod etilgan.

Darvoza 3 ta mo'ri (teshik)dan iborat va yuqorisi tekis g'isht bilan soyali qilib qurilgan. Darvoza balandligi 11 metrni tashkil etib, shaharning qal'a devoriga teng hisoblangan. Darvozabonlar uchun maxsus xonalar va soqchilar uchun alohida joy mavjud bo'lgan. Darvoza qattiq qayrag'ochdan mustahkam va qalin qilib qurilgan. Darvozaning mustahkamligini yanada oshirish uchun yog'och materiallar qizdirilgan yog'ga botirib olingan. Darvoza yo'g'on to'sinlar va temir mixlar bilan yaxlit tabaqali qilib yasalgan. Darvoza uchun halqa va zulfinlari mis temiridan haftjush usulida ishlangan. Darvoza tepa to'sinlari gujumdan va ostonasi tut daraxtidan tayyorlangan. Ushbu darvozalar har qanday sharoitda vaqt o'tishiga qaramay, o'z sifatini yo'qotmasdan asrlar osha xizmat qilgan.




Mozori Sharif darvozasi yonida



4. Qavola (Qarshi) Darvozasini ba'zi manbalarda darvozai Rangrez, deb ham yuritishgan. Shayxi Rangrez matolarga gul bosishda g'oyat hunarmand, karomatgo'y avliyo ham bo'lgan ekan. Uning karomatlarini ko'rgan Shayxul Olam Sayfiddin Boharziy (XIII asr) shogirdini haqqa yetgan deb hisoblab, unga o'z qishloqlaridan birini hadya etgan. Keyinchalik Abdullaxon shaharni kengaytirgani chog'ida ushbu qishloq ham qal'a devori ichida qolgan. Unda qurilgan darvoza esa Qavola, deb yuritila boshlandi. Ammo darvoza asosan Qarshi, Kesh aholisining asosiy kirish joyi hisoblangani bois, mahalliy aholi uni Qarshi darvoza, deya atay boshladi.

5. Salloxona darvozasi. Salloxona yoki Mir-Mas'ud darvozasining tashqi tomonida amir askarlari joylashgan bo'lib, bu yerda 1920 yillarga qadar harbiy mashq o'tkazilgan. Sobiq sho'ro davrida ancha vaqtlar parad va anjumanlar shu maydonda o'tkazilar edi. Salloxona darvozasi Abdulazizxon tomonidan 1540-1549 -yillarda qadimiy devor bilan birga qurilgan. O'sha davrda ziyoratchilar uchun maqbara, masjid, hovuz, quduq va hujralar bunyod etilgan. Afsuski, ular bizning davrimizgacha etib kelmagan. Salloxona darvozasi haqidagi ma'lumotlar vaqf hujjatlarida (1683-1684- yillar) uchraydi.

Darvozaning balandligi 11,1 metr, kengligi 21 metr, asosi bir yarim metrni tashkil etgan. Usti 21 ta gultojdan tuzilgan, “guldasta”lar ikki qavatli bo’lib, qorovullar turadigan xonasi bo’lgan. Shaharga kiraverishda yo’lning o’ng tomonida ikki qavatli Abdullabek hovlisi bo’lgan. Uning yonida esa Arabon masjidi qurilgan bo’lib, bu masjidida mahalla ahli namoz o’qigan.




Salloxona darvozasi

6. Namozgoh darvozasi. Namozgoh darvozasi qurilgan yili ma’lum bo’lmay, Abdulazizxon tomonidan 1540-1550 yillarda qayta ta’mirlangan. U juda chiroyli mayolika va koshinlar, terakotalar ishlatilib, arka svodtimpan kiteba qilib, “guldasta” larning usti oltita gultojlar bilan bezatilib qurilgan. Yuqori qismi 12 ta gultojdan iborat bo’lib, eski qal’aga tenglashtirib bunyod etilgan. Odamlar shahar ichidagi masjidlariga sig’maganlari uchun Ibrohim darvozasidan Namozgoh masjidiga yig’ilishgan. Namozgoh gavjum bo’lgan. Turk xoqoni Arslonxon farmoni bilan Namozgoh atrofi to’liq tartibga solingan. Bog’lar barpo etilib, pishiq g’ishtdan minorali devorlar qurilgan. Darvoza balandligi 11 metr-u 6 sm, kengligi 13,8 metrga teng qilib bunyod etilgan.

7. Samarqand darvozasi. Samarqand darvozasi Buxoro shaharining shimoli-sharqiy tomonida joylashgan bo’lib, ushbu darvoza orqali Samarqandga borilgan. Darvoza shayboniy hukmdor Abdulazizxon tomonidan qurdirilgan bo’lib, 1557—1560-yillarda Abdullaxon II tomonidan qayta ta’mirlangan. Samarqand yo’li orqali G’ijduvon, Qo’qon, Toshkent va boshqa shaharlardan, uzoq xoriydan kelgan savdogarlar, mehmonlar shu darvozadan shaharga kirishgan. Darvoza yaqinida aravaszlik, yog’och materiallari, deraza, eshik bozori bo’lgan. Keyinchalik Amir Abdulahadxon (1885—1910), Amir Olimxon (1910—1920) davrida tiklangan yozgi saroy — Sitorai Mohi-Xossaga eltuvchi yo’l shu darvoza orqali o’tgani sababli, bu maskan savdogarlar uchun juda ahamiyatli hisoblangan. 1920-yilda Buxoroga qizil

armiya hujumi natijasida, darvoza portlatilgan. Ushbu hujum natijasida Buxoro darvozalari ikkitaga kamaygan. Darvozaning balandligi 11,4 metr, qadimiy devor balandligiga teng bo'lib, arka va timpanli, kitebasiz tekis qilib, bir nechta darichalar qo'yib tiklangan, terakot hamda koshindan belbog'li qilib jilo berilgan. „Guldasta“lari hamda ustki qismi chiroyli qirrali gultoj bilan bezatilib, qadimiy devorga bir xilda birlashtirilgan. Dilrabo Murodova tadqiqotlariga ko'ra, 1959-yilning yanvar oyida ham darvoza mavjud bo'lgan. Ushbu darvoza yonida Buxoro amirligi qo'shini to'planadigan va harbiy ko'rik o'tkaziladigan maydon bo'lgan. O'tgan asrning 60-yillarida shaharni kengaytirish bahonasida inshoot buzib yuboriladi. O'zbekiston mustaqilligi tufayli qadimiy Buxoroning Samarqand darvozasi qayta tiklashga kirishildi. Arxivdan topilgan suratlar asosida darvozaning qurilish loyihasi tiklandi. Uning balandligi 11 metr, kengligi 13 metrni tashkil etadi. Darvoza qurilishida ishlayotgan qo'li gul ustalarga o'ziga xos milliy uslubni saqlab qolish uchun qurilishda 200 mingta „obi g'isht“ ishlatilishi aniqlandi. 2009-yil yanvar oyidan boshlab muhandis-me'mor Mahmud Ahmedov loyihasi asosida asl qiyofaga mos qilib qayta tiklandi.



Samarqand darvozasi

8. Shayx Jalol darvozasi. Buxoroning eng qadimiy darvozalaridan yana biri shaharning janubida joylashgan Shayx Jalol darvozasidir. XVI asrda hukmdorlik qilgan Abdulazizxon piri Shayx Jaloliddin sharafiga ilgari Bobi Morkushon (ilon o'ldiruvchilar darvozasi) deb yuritilgan darvozani Shayx Jalol deb atashga farmon beradi. 1549-1550-yillarga oid hujjatlarda Shayx Jalol darvozasi hamda shu nom bilan ataluvchi mahalla haqida ma'lumotlar bor. Darvoza yaqinida juda katta bog'lar, jumladan Xoja Ismatulloi Buxoriy bog'lari va maqbaralari bo'lgan. Istiqlol sharofati hamda viloyat hokimining tashabbusi bilan ushbu bog'lar, Ismat Buxoriy maqbaralari qayta tiklandi. Ayni paytda bu xayrli ishlar davom ettirilib, xuddi Samarqand darvoza kabi Shayx Jalol darvozasi ham asl o'rnida qaytadan bunyod etilgan. Darvozaning balandligi 11-12 metr bo'lib, kengligi 14×20, tashqi hamda ichki tomonida peshtoqlari bor. Abdulazizxon darvozaninig ustki qismini gultoj bilan bezatib, xonaqoh ustiga ko'k gumbazlar qurishni buyuradi. 1898-yilda esa ushbu gumbazga e'tibor berilmay quyilganligi bois koshinlari ko'chib tushgan. 2008—2009- yillar oralig'ida tayyorlangan loyihaga asosan usta-me'morlar Muzaffar Mirzayev hamda Sharif Rahimovlar tomonidan Darvozayi Shayx Jalol qaytadan qurildi. Yon atrofidagi qadimiy qal'a devori ham tiklandi.



Shayx Jalol darvozasi

9. Qorako'l (Haj) darvozasi – Buyuk ipak yo'li savdo tarmog'idagi asosiy darvozalardan biri bo'lgan. Eron, Xuroson, Turkiya davlatlaridan keladigan savdogarlar shu darvoza orqali shaharga kirishgan. Darvozaning ichki tomonida katta bozor bo'lgan. Ayni paytda qal'a devorlaridan ajratilgan holda yakka o'zi bo'y cho'zib turibdi. Darvoza asosan ikki katta svod, arkali va "guldasta" qilib qurilgan. Qorako'l darvozasi kvadrat shakldan iborat 25×25 santimetriga teng g'isht bilan terilgan va yuqori qismi kungurali gultoj bilan zeb berilib, hamda qal'a devorlariga tenglashtirib qurilgan. Qorako'l darvozasi 1975-yilda usta Ahror Asrorov boshchiligida qayta ta'mirlash ishlari olib borilgan Turkiya, Eron, Xuroson davlatlaridan keladigan savdogar va sayyohlar shu darvoza orqali shaharga kirishgan. Hozirgi kunda Qorako'l darvozasi qal'a devorlaridan ajralgan holda bo'y cho'zib, sayyohlar e'tiborini qozonib kelmoqda. 2008-yilda Buxoroda shahar qal'a devori va qadimiy darvozalarini tiklash va ta'mirlash bo'yicha sa'y-harakatlar boshlangan. Qorako'l darvozasi o'z holicha saqlanib qolgan darvozalardan biri hisoblanadi.



Qorako'l (Haj) darvozasi

10. Shergiron darvozasi ham Abdullaxon II davrida qurilgan bo'lib, darvoza joylashgan hududda bir paytlar sherlar saqlanadigan qo'riqxonaga o'rnashgan. Sherlar xazinani qo'rilash va janglarda foydalanish maqsadida o'rgatilgan. Shu bois ham darvoza «Shergiron» (sher saqlovchi) deb atalgan. XVI asrdan boshlab, ushbu darvozadan Mir Do'stim xonadoniga qadar joyda yopiq bozor faoliyat yuritgan. Ahmad Jomiy qabrlari ziyoratgohi ham shu darvoza yaqinida joylashgan.



11. Talipoch darvozasi. Bugungi kunga qadar saqlangan mazkur inshoot 1557-1598-yillarda Abdullaxon II davrida bunyod etilgan. Bu darvoza orqali Amirobod, Chorbakr, Jondor, Xorazmga borilardi. Darvoza ikki „guldasta“, arka, ravoq, kanos kitebali qilib, usti kungurali gultoj bilan bezatilib, qadimiy qal'a devorlariga moslashtirib qurilgan. Zinda fil Ahmad Jomiy qabrlari ziyoratgohi ham shu darvoza yaqinida joylashgan. Darvoza 1960-yilda usta Aminjon Salomov, 2005-yilda esa me'mor Tuyun Boboev rahbarligida qayta ta'mirlandi. Hozirgi vaqtda Talipoch darvozasi yonida Buxoro markaziy bozori joylashgan.



Talipoch darvozasi

12. Xo'ja Ismat (Xo'jayon) darvozasi. Abdulazizxon 1540-1549-yillar orasida Buxoroning g'arbiy tomonini kengaytirib, O'g'lon Ato, Chashmayi Ayub, Abdulloxon madrasasining orqa tomonidan Shayx Jalol darvozasigacha pishgan g'ishtdan, Xo'ja Ismat (Xo'jayon) darvozasigacha xom va paxsa g'ishtdan devor qurdirgan. Darvozai Xo'jayon viloyat kasalxonasi qurilgan davrda ham bo'lgan. Bu darvoza orqali Namozgoh yo'liga qo'shilib, janubga boradigan katta yo'l o'tgan. Xo'jayon darvozasi atrofida Fayzulla Xo'jayevning hovlisi ham bo'lib, hozirgi vaqtda bu hovli muzeyga aylantirilgan. Parfenov, Feninlar tomonidan chizilgan Buxoro devorlari xaritasida darvozaning joylashgan o'rni aniq ko'rsatilgan. Darvozai Xo'ja Ismat (Xo'jayon) viloyat kasalxonasining eski darvozasidan to'g'ri boradigan yo'lda joylashgan. Shu atrofda yashovchi aholi vakillari (Mahbuba Sayfieva – 76 yoshda, Abram Yakubov – 80 yoshda, Hasanjon Asadov) bilan uyushtirilgan suhbatlar darvoza joyini aniqlashda yordam berdi.

1952-1953 yillarda bo'lib o'tgan zilzila oqibatida Xo'jayon darvozasi buzilib ketgan. O'rtasi gumbazli qilib yasalgan to'rtta "guldasta"dan iborat bo'lgan darvoza Buxoro shahrining qadimiy qal'a devorlariga moslashtirib bunyod etilgan.

Buxoroyi Sharifning o'n ikkinchi darvozasi to'g'risida ikkita talqin mavjud. Birinchi talqin tarixchi olim R.Almeevga mansub bo'lib, unga muvofiq Buxoroning atrofida o'n birta darvoza bo'lgan. O'n ikkinchi darvozasi – bu Ark darvozasi hisoblanadi. Chunki Ark shahar ichidagi shahar hisoblanadi va u yerda amiru amaldorlar yashab faoliyat ko'rsatayotganlar. Ularni himoyachisi sifatida bu hashamatli davroza xizmat qilib kelgan, deb asoslanadi. Ikkinchi talqinga muvofiq shahrimizning o'n ikkinchi sonli darvozasi sifatida "Xo'ja Ismat (Xo'jayon) darvozasi" hisoblanadi. Shahar darvozalari kechqurun soat sakkizda yopilib, ertalab bomdod namozidan so'ng ochilgan. Darvozalar shaharga kelib ketadigan odamlarni nazorat qilish, aholi xavfsizligini ta'minlash barobarida savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'yishda bojxona vazifasini ham o'tagan. Chunki bu darvoza qiblaga qaratilgan bo'lib, 1920-yildagi inqilob oldi buxoroliklar undan chiqib, Haj ziyoratiga borganlar. O'ninchi-Shergiron darvozasidan hozirgi kunda hech narsa qolmagan. Faqat uning tarixiy joyi ma'lum. Yagona to'liq shakl va shamoyilini saqlangan darvoza bu -Talipoch darvozasidir. U hozirgi dehon bozori oldida joylashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.M.Byelyenskiy, I.B. Byentovich, O.G. Bolshakov Sryednyevyevkoviy Sryedniy Azii".-L.: Nauka, 1973.
2. I.I. Umnyakov «K voprosu ob istorichyeskoy topografii sryednyevyevkovoy Buxari» (sbornik Turkyestanskogo Vostochnogo instituta, v chyesti prof. A. S.Shmidta, Tashkent, 1923).
3. Abu Bakr Muxammad ibn Jafar Narshaxiy „ Buxoro tarixi” fors-tojik tilidan A. Rasulov tarjiması– Toshkyent, “Shark bayezi”,1993.
4. L.I. Ryempel. Dalyokoye i blizkoye zapisi-Stranitsi jizni, bita, stroityelnogo dyela, ryemyesla i isskustva Staroy Buxari.-T.:Gafur Gulyam, 1982.
5. Suxaryeva O.A. Kvartalnaya obshina pozdnyefyeodalnogo goroda Buxari.-Moskva.: Nauka, 1976.
6. Bobojonova F. Buxoro mye'moriy obidalar tarixi. O'quv qo'llanma 2022 y Ta'lim Fan nashriyoti – 2022 y.
7. Solekhovich I. S., Halimovich B. H. Palace architecture in medieval bukharian architecture //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 802-805.
8. Tojiev I., Vakhitov M. Research of structure of mortars for architectural monuments of Bukhara //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – T. 2467. – №. 1. – C. 020021.